

XX ASAR O‘ZBEK NASRIDA SURXON KOLORITI

Temirova Nazira Akbayevna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Surxondaryo bo‘linmasi o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10647505>

Annotatsiya. Maqolada Surxon koloriti va uni ochib bera oladigan ijodkorlarning asarlarini badiiy talqin qilish hamda Surxon vohasining o‘ziga xos jihatlarini o‘rganish maqsad qilangan.

Tayanch so‘zlar: kolorit, milliylik, qadriyat, portret, peyzaj, adabiy meros, obraz, xarakter.

COLOR OF SURKHAN IN UZBEK PROSE OF THE 20TH CENTURY

Abstract. The purpose of the article is to artistically interpret the colors of Surkhan and the works of artists who can reveal it, as well as to study the unique aspects of the Surkhan oasis.

Key words: color, nationality, value, portrait, landscape, literary heritage, image, character.

ЦВЕТ СУРХАНА В УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЕ XX ВЕКА.

Аннотация. Целью статьи является художественная интерпретация колорита Сурхана и произведений художников, способных его раскрыть, а также изучение уникальных особенностей Сурханского оазиса.

Ключевые слова: колорит, национальность, ценность, портрет, пейзаж, литературное наследие, образ, персонаж.

Adabiyot xalqlarning buguni va ertasini yoritib beradigan, ajdodlardan avlodlarga ulkan meroslarni yetkazadigan qimmatli xazinadir. Yer yuzida turfa xalqlar bor, biroq barchasining o‘ziga xos turmush tarzi, yashash sharoiti, urf-odati, tili, dini, qolaversa, ozuqa manbalari ham bir-biridan farq qiladi. Demakki, ularning o‘zligini, o‘z menini ajratib turuvchi bu kabi xususiyatlar har bir inson uchun qadrlı. Global rivojlanib borayotgan insoniyat olamida o‘z mentalitetini saqlab qola oladigan insonlar ko‘p, biroq turli xalqlar va millatlar aloqa aralashuvi natijasida buning teskarisi ham sodir bo‘lib bormoqda. Ertangi kunda ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodga har bir millat o‘z mentalitetini sof va toza holda yetkazib bera olishi uchun asosiy manbalardan biri o‘sha xalqning o‘tmishi haqida ro‘yi rost ochib berilgan badiiy asarlardir. Har qaysi xalqda bo‘lgani kabi o‘zbek xalqida ham ana shunday qalami o‘tkir, haqiqatni yoritishdan cho‘chimaydigan, hech bir yerda hayiqmasdan oqni oq, qorani qora deya oladigan zabardast ijodkorlarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Bu haqda ustoz yozuvchimiz O‘tkir Hoshimov ham shunday fikr bildirganlar:

“Shoir va adib asarlarida milliy til boyligi, tovlanishlari aks etadi. Qolaversa, qahramonlar portreti, peyzaj, udumlar kitobxonda o‘sha xalq, o‘sha millat haqida tasavvur uyg‘otadi. Asarda zamon va makon tushunchasi bo‘lmog‘i tabiiy. Hozirda yer yuzida 1600 dan ortiq millat yashaydi.

Har birining o‘z tili, libosi, urf-odatları bor. Deylik, o‘zbek do‘ppi kiya, meksikalik sombrero kiyadi. Markaziy Osiyo dehqoni qovun eksa, Janubiy Amerika fermeri shakarqamish o‘stiradi... Bular ham “kolorit”. Biroq milliylikning tashqi – zohiriy ko‘rinishi milliy xarakter teran

tasvirlangan asarda, avvalo, odamning o'ziga xos ruhiy olami aks etadi. Bunisi endi, ancha mushkul yumush...

Boshqalar qatorida o'zbek adabiyotida ham millatning o'ziga xos olami, chuqur va ishonarli tavsirlangan asarlar doim bo'lgan va bugungi avlod vakillari – yosh, iste'dodli shoir, adiblar ijodida ham davom etayotir”.

O'zbeklar bitta millatga mansub bo'lsa-da, qaysi hududda yashashiga qarab turfa xarakterga ega bo'ladi. Surxon vohasining aholisi ham ana shunday o'ziga xos xarakterga ega.

O'zbek xalqi sodda xalq, biroq surxon odamlari esa ular orasida nihoyatda haqsevarligi, sodda va samimiyligi, mehmondo'stligi, shuningdek, biroz to'pori va cho'rtkesarligi bilan ham ajralib turadi. Surxonning o'zligini yanada aniqroq bilish uchun esa Tog'ay Murod, Sh.Xolmirzayev, N.Normatov asarlarini o'qib chiqqan har bir inson bunga o'zi guvoh bo'ladi.

Birgina Tog'ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” romanida Surxon o'lkasida insonlardan tashqari hayvon-u hasharotlar, o'simliklar hamda ularga beriladigan ozuqalar haqida ham to'liq ma'lumotlar aytib o'tilgan. Bu asarni o'qish davomida kitobxon Tog'ay Murodni faqat adib emas, balki biolog yoki zoolog olim ham degan tasavvurga keladi. Chunki asarda tasvirlangan har bir obrazga u shunchaki yondashmadi, balki batafsil to'xtalib o'tdi. Bunday qimmatli ma'lumotlarni yozish uchun esa, albatta, katta bilim va tajriba, mahorat kerak bo'ladi.

Yozuvchining o'zi ham asar yakunida bu haqida shunday to'xtalib o'tadi:

“Men endi necha o'nlab paxtachilik darsliklarini o'qidim. Necha o'nlab qishloq xo'jalik kitoblarini o'qidim.

Paxtada o'tmish kunlarimni bir-bir esladim. O'zim bilmish paxtakorlarni bir-bir yodladim. Baribir... baribir bo'lmadi.

Men o'zimni... xalq hayoti bilimdoni, deya o'ylar edim, xalq xarakteri bilimdoni, deya o'ylar edim, xalq ruhiyati bilimdoni, deya o'ylar edim.

Men paxta bilan yuzma-yuz bo'lib... men hali o'zbek dehqonini bilmasligimni angladim.

Men paxta bilan yuzma-yuz bo'lib... men hali paxtakor kim ekanini bilmasligimni angladim.

Men qog'oz-qalam g'amladim. Men Surxon dalalarini nishonladim”.

Tog'ay Murod romanni shunchaki boshlamadi yoki xonasida o'tirib yakunlamadi, u asarning sof va tabiiy chiqishi uchun tun-u kun qahramonlar bilan birga harakat qildi va buning mashaqqatli bo'lsa-da uddasidan chiqa oldi.

Yozuvchi yana shunday eslaydi:

“Rais aytmish Aliqulov dala shiyponini makon etdim. Men bo'lajak... Dehqonqul bilan yuzma-yuz bo'ldim.

Men bo'lajak... Dehqonqul dalalarini ish joyim etdim.

Dehqonlar qanday kiyimda bo'lsa — men ham shunday kiyinib oldim. Dehqonlar o'tirsa — o'tirdim, dehqonlar tursa — turdim.

Chigit ekish boshlandi.

Men dehqonlar bilan chigit ekdim. Men... dehqon bo'lib, chigit ekdim!

Men g'o'za yaganaladim. G'o'za chopiq qildim. G'o'za o'toq qildim. G'o'zaga go'ng berdim. G'o'zaga suv taradim. G'o'za chilpidim.

Men dehqonlar bilan paxta terdim.

Men g‘o‘zalarga suv taray-taray, necha-necha tonglarni oqladim.

Men shiyponlarda uxlab qoldim. O‘qariq bo‘ylarida uxlab qoldim. Egatlarda uxlab qoldim.

Men Surxon dalalarida olti oy kezdim. Surxon oftobida olti oy kuydim. Surxon changlarini olti oy yutdim.

—Men o‘zbek xalqiga haykal qo‘yaman!

Men ana shunday orzuda dalalar bilan xayr-xo‘shlashdim. Nihoyat, orzularim oxir-oqibati — ushbu roman bo‘ldi”.

Asar davomida adibning bosh qahramoni shuncha qiyinchiliklarga dosh bergani yetmaganidek, ayoli ham o‘ziga o‘t qo‘yib yonib ketadi, Dehqonqulning shunda-da bardoshi sinmadi, shunda-da atrofdagilarga nisbatan ishonchi yo‘qolmadi. Bu esa har bir insonni chuqur mushohada qilishga chorlaydi, albatta.

Adiblarning shunday gapi bor: “Adabiyotning hayotning inokosi deyish mumkin, ammo uni suratga tushirilgan ayni nusxasi deb bo‘lmaydi”. Biroq bu fikrga qarshi ularoq, Tog‘ay Murodning ijodini hayotning ayni nusxasi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi, chunki uning har bir asarida Surxonning yuragi jo‘sh urib turadi.

REFERENCES

1. Tog‘ay murod “Otamdan qolgan dalalar” «Sharq» nashriyot-matbaa konserni. Toshkent — 1994. 167-168 bet.
2. O‘.Hoshimov “Badiiy asarda milliy kolorit” maqolasi. 2012-yil
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish . T: A Qodiriy nomidagi xalq merosi 2004-yil
4. U.Jo‘raqulov Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr, Xronotop. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot manbaa ijodiy uyi T:2015 yil,148-150 bet.